

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

## TOG‘AY MURODNING “OYDINDA YURGAN ODAMLAR” QISSASIDA XALQ MAQOLLARI VA IBORALARINING QO‘LLANISHI

**Ma‘mura Zaripova,**  
TXVU akademik litseyi  
oliy toifali o‘zbek tili fani  
o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasida xalq maqollari va iboralarning qo‘llanishi, ularning qahramon xarakterini ochib berilishidagi o‘rni, mavzusi haqida so‘z yuritiladi.

**Annotatsiya:** V dannoy statye govoritsya ob ispolzovanii narodnykh poslovis i vyrazheniy, ix roli v raskrytii xarakteru geroya v rasskaze “Lyudi, iduyiye pod lunoy” Togaya Murada, narodnogo pisatelya Uzbekistana.

**Annotation:** In this article, the people’s writer of Uzbekistan Togay Murad’s story “People walking on the moon” talks about the use of folk proverbs and phrases, the role of revealing their hero’s character, and the topic.

Tog‘ay Murodni shaxsan tanish, hamsuhbat bo‘lish nasib etmagan, lekin uni yozuvchi sifatida taniganimga ancha bo‘ldi. “Oydinda yurgan odamlar” qissasini o‘qiganimda ismsiz bir taassurot ichida qolganimni eslayman: mazza qilib o‘qiganim rost-u, birovga aytib bergudek voqeasi yo‘qdek edi-da!.. Qahramonlari ham binoyidek-u, insho yozganingda “Falonchiga o‘xshagim keladi” deydigan emasda!.. Bu yanglig‘ taassurotning sababini keyinroq angladim: adabiyotimiz yangilanayotgan payt ekan, Tog‘ay Murod shu yangilanishni boshlaganlardan biri, bizning adabiyot haqidagi tasavvurlarimizni yangilagan avlodning ilg‘orida borgan vakillaridan ekan...<sup>1</sup> Ha, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tog‘ay Murod o‘zbek adabiyotida yangi usuldagi adabiyotni boshlab bergan yozuvchidi. Uning qahramonlari juda sodda, jaydari, o‘zlarining yutuq-u kamchiliklari bilan o‘quvchi qalbiga kirib boradilar. Asardagi voqealar ham odamlarning oddiy hayot tarzidek rivojlanadi. Bunday taqdirli odamlar atrofimizda ko‘p, ular haqida ko‘p eshitganmiz, undaylarni ko‘p ko‘rganmiz. Lekin ularning kechinmalarini bilmasligimiz, his qila olmasligimiz mumkin. Tog‘ay Murod aynan ana shu biz ko‘ra olmagan, tushuna olmagan, his qila olmagan tuyg‘ularni, og‘riqlarni bizga so‘zlab bergan. Men yozuvchi asarlarini o‘qiganimda shularni his qildim. O‘ylaymanki, Tog‘ay Murod asarlari odamlarni tarbiyalaydi, shuning uchun ularni o‘qish kerak. Ko‘pchilik “Oydinda yurgan odamlar” qahramoni Qoplonda Tog‘ay Murodning o‘zini ko‘radi: "U mijozi xush ko‘rmish odamlar bilan salom-alik qiladi. Bordi-keldi qiladi. Chin qalbdan gapirishadi, ochilib gurunglashadi"<sup>2</sup> Haqiqatdan ham Tog‘ay Murod

<sup>1</sup> Dilmurod Quronov. «Qalblarni larzaga solgan xirgoyi». “Hurriyat” gazetasi 2007.

<sup>2</sup> Farrux Jabborov. “Davralari davom etadi”. “Hurriyat” gazetasi 2007.

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

qahramonlarining har biriga yozuvchining qalbini egallab, unga tinchlik bermagan tuyg‘ularini ko‘chirgandek. Ehtimol, “Oydinda yurgan odamlar” asaridagi Qoplonning ichki kechinmalari, hayot haqidagi fikrlari, qalbidagi tuyg‘ulari, xayolidagi kurashlar, farzandsizlik dog‘i-barcha-barchasini yozuvchi oldin o‘z qalbidan o‘tkazib, tanasida his etib, keyin qahramoniga ko‘chirgandir. Tog‘ay Murod asarlari “Qadriyatlar ensiklopediyasi”ga o‘xshaydi. Yozuvchi asarlarida (“Yulduzlar mangu yonadi”, “Ot kishnagan oqshom”, “Oydinda yurgan odamlar”) uzoq tariximizdan, buyuk ajdodlarimizdan o‘tib kelayotgan, bugungi kunda tansiq bo‘lib borayotgan qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, tariximiz, madaniyatimiz haqida so‘z yuritadi. Ayniqsa, “Oydinda yurgan odamlar” qissasida to‘y marosimlaridan tortib afsonalar-u, tarixiy haqiqatlar, insoniylik qadriyatlarigacha erinmay, batafsil yoritib beradi. Asar syujetidagi har bir voqea, obraz xarakterini ochib berishda xalq maqollari, iboralardan o‘rinli foydalanadi. Bu iboralar juda sodda, kundalik hayotimizda ko‘p eshitiladigan, ko‘p ishlatiladigan ifodalar. Lekin yozuvchi ularni qahramon kechinmalarini, tuyg‘ularini, dardini ochib berishda juda unumli foydalangan.

Masalan: Qoplonning ota-onasi, yaqinlari uning uzoq yillar davomida farzand ko‘rmaganligi uchun Oymomo bilan ajrashishini maslahat berishdi, talab qilishdi hatto ko‘p marotaba ziddiyatlarga borishdi. Ota-ona, yaqinlari, Qoplonning, Oymomoning qalbidagi tug‘yonlarini ta’sirli ifodalash uchun quyidagi iboralarni qo‘llaydi.

Og‘zidagi holva og‘zida qoldi, bo‘g‘zidagi holva bo‘g‘zida qoldi (235-bet)

Bolali uy xandon bo‘ldi, bolasiz uy zindon bo‘ldi

Har bir gulning o‘z hidi bor (onasining so‘zi)

O‘g‘li borning o‘zi bor, qizi borning izi bor.

Bo‘laringda bo‘lib o‘t, bo‘z yo‘rg‘aday yelib o‘t

Qozon to‘la osh bo‘lsin, yostiq to‘la bosh bo‘lsin. (otaonasi tanbehi)

O‘nta bo‘lsa o‘rni boshqa, qirqta bo‘lsa qilg‘i (308-bet)

Asardagi Qimmat momo obrazi orqali hayotimizda, atrofimizda, qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasida insonlar dardini yangilab turadigan, kamchiliklarni doimiy ravishda payt poylab yuziga soladigan, o‘zlarini mehribon qilib ko‘rsatib, aslida ko‘pchilik ortasida mulzam qilishni xush ko‘radiganlarni iboralar orqali yanada yaqqolroq ko‘rsatish uchun iboralarni o‘rnida keltiradi. Qimmat momo ham Oymomoning bir dardiga yuz dard qo‘shib, farzandsizligini eslatib, uni mulzam qilishdan tiyilmagani, o‘zi ayol bo‘latrib, Oymomoni tushunmaganligini quyidagi iboralar orqali ifodalagan:

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Qimmat momolar bировlar muvoffaqiyatini ko‘rsa, ichini it tirnaydi, o‘z yo‘iga o‘zi qovriladi, jizg‘anak bo‘ladi. Kuyib kul bo‘ladi. Qildan qiyiq qidiradi.(261-b)

Qimmat momo endi indamay keta beradimi? Yo‘q, indamay ketbermaydi. Bordi-yu, indamay ketsa... tobi qochib qoladi! Yegani-da tatimaydi. Ichgani-da tatimaydi. Aza tutadi. Oymomo , yomondan qoch-da qutul, yo, ton-da qutul,deya ketdimi. (263-b)

Balchiqqa tosh otsang betingga sachraydi. (Qimmat momo haqida-289-b)

Bedana tezotar bo‘lsa, o‘z boshini o‘zi yoradi. (Qimmat momo haqida 289-b)

Bir qishning bir yozi bo‘ladi, qarg‘aning qag‘illagani qoladi (290-bet)

Yer yorilmadi, Oymomo yerga kirib ketmadi.

Asar qahramonlarining kundalik hayotini ifodalashda, ham quyidagi iboralarni keltiradi.

Yon qo‘shnim-jon qo‘shnim (236-b)

O‘z uyi-o‘lan to‘shagi

Olisdagi palovdan yaqindagi sho‘rva yaxshi. (sho‘ro kotibi qoravullikka ishga olaman deganda)

Folchiga ishonma, suvga suyanma.

Elakka bormish ayolning ellik og‘iz gapi bor. (268)

Oyning o‘n beshi qorong‘u bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘ (294-b)

Oymomoning qayg‘usidan, iztiroblaridan, farzandsizlik g‘amidan kundan kun so‘nib borayotganini ta‘riflashda Qoplon tilidan quyidagi iborani keltiradi:

O‘lik bo‘lib go‘rda yo‘q, tirik bo‘lib to‘rda yo‘q ( 308-b)

Oymomoni ruhan qo‘llash maqsadida Qoplon tilidan:

Sabr qilsang g‘o‘radan holva bitadi. Sabrning tagi oltin (331-bet)iborasini keltiradi.

Qoplon bilan Oymomoning farzandsizligi oxir oqibat qarindoshlarining qaroriga ko‘ra ajrashadigan bo‘ldilar. Xola-yu tog‘asi Qoplonni uylantirish harakatiga tushdilar. Shu o‘rinda xolasi tilidan xalqimizda mavjud quyidagi maqollarni qo‘llagan.

Po‘lat pichoq qinsiz qolmaydi (Qoplonning xolasi aytadi- 319-b)

Eshik ko‘rganni olma, beshik ko‘rganni ol! –(319-b)

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar. ”Sharq“ nashriyoti-matbaaaksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2008
2. Dilmurod Quronov “Tog‘ay Murod xirgoyilari” .”Qalblarni larzaga slogan xirgoyi” [WWW.ziyouz.com](http://WWW.ziyouz.com) kutubxonasi

# **“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

3. Farrux Jabborov “Davralari davom etadi...”[WWW.ziyouz.com](http://WWW.ziyouz.com) kutubxonasi
4. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
5. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA’SIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
6. O‘razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
7. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
8. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.
9. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications *JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
10. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks etgan asarlar. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”. – Toshkent: 139-146.
11. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in Alisher Navoy’s creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.
12. Atabayeva, G. Z. (2024). NIZOMIY GANJAVIYNING “XAMSA” ASRIDAGI OBRAZLAR TAHLILI VA GENEZISI. 2-SBİN, 1-YIL YANVARYA 2024-GO-1-YIL KISHM, 12.
13. Burxanova, Feruza. "JAHON ADABIYOTI NAMUNALARI NAZAR ESHONQUL NIGOHIDA." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.20 (2024): 68-78.
14. Kadirova, M. (2022). The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 3(03), 1-6.
15. Qalandarova, D. Z. (2024). EPIK JANRLARNING XORIJDA TADQIQ ETILISHI MASALALARI (“Alpomish” dostoni misolida). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 79-83.